




NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



**NAVOIY VILOYATIDA  
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI  
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI**  
*2021-yil yakuniga*


Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi bo'lik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F. R. Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan", deb yozadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san'at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda chinakam iste'dod egalari ishtirokini ta'minlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan. Qaror asosida 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019 – 2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi.

Madaniy faoliyatda san'at sohasining ko'plab yo'nalishlarini to'liq qamrash, ularning faoliyatini to'g'ri baholash maqsadida soha mutaxassislarining maslahat organi bo'lgan tarmoq badiiy kengashlarini tuzishga muhtojlik mavjud. Endilikda tasarrufida madaniyat tashkilotlari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, madaniyat tashkilotlari tomonidan teatr, musiqa va konsert faoliyati, sirk san'ati va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn bo'yicha tarmoq badiiy kengashlarini tashkil etish huquqi qonun bilan mustahkamlandi.


# NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Kutubxonalar soni, birlikda



Navoiy viloyatida 17 ta kutubxonalar faoliyat yuritadi. Shundan, viloyat kutubxona markazi va 9 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari, Viloyat Bolalar kutubxonasi, Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti axborot-resurs markazi, Navoiy viloyati madaniyat boshqarmasi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi, oliy ta'lim muassasalarida 2 ta axborot-resurs markazlari, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Navoiy akademik litseyi axborot-resurs markazi hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasiga qarashli kutubxona faoliyat yuritib kelmoqda.

## 2021- yilda kutubxona muassasalari, foizda




**Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari  
(2017-2021 yillarda)**

	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Kutubxona muassasalari soni, birlikda</b>	102	101	19	19	17
<b>Kutubxona fondi, ming nusxa</b>	2117,4	2069,0	1136,8	1200,2	1266,4
<b>Foydalanuvchilar soni, ming kishi</b>	400,2	404,1	137,1	102,3	132,0
<b>Berilgan kitoblar soni, ming nusxa</b>	5325,5	5332,6	1609,1	944,6	1137,4


**2021- yilda kutubxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari  
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**

	Kutubxonalar soni, birlikda	Kutubxona fondi, ming nusxa	Foydalanuvchilar soni, ming kishi	Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa
<b>Navoiy viloyati</b>	17	1266,4	132,0	1137,4
<b>shaharlar:</b>				
<b>Navoiy</b>	5	744,8	50,4	581,8
<b>Zarafshon</b>	1	37,0	8,1	32,3
<b>G'ozg'on</b>	-	-	-	-
<b>tumanlar:</b>				
<b>Karmana</b>	4	119,0	32,4	199,5
<b>Konimex</b>	1	66,7	5,0	47,6
<b>Qiziltepa</b>	1	79,6	5,0	80,8
<b>Navbahor</b>	1	30,7	6,6	48,9
<b>Nurota</b>	1	81,8	9,5	52,1
<b>Tomdi</b>	1	13,7	1,4	5,7
<b>Uchquduq</b>	1	11,3	6,8	21,5
<b>Xatirchi</b>	1	81,8	6,8	67,2

2021- yilda kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni,  
ming kishi




2021- yilda tillar bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi,  
ming nusxa






# NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Muzeylar soni, birlik




## Muzeylardagi eksponatlar soni, ming birlik



Navoiy viloyatida 2021- yilda jami muzeylar soni 6 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 4 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 28,1 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 69,0 % (19,4 ming kishi) tashkil etgan. Muzeylarda 51 ta ma'ruzalar o'qilgan. Muzeylar tomonidan jami 22 ta ko'rgazmalar, 1180 ta ekskursiyalar tashkil qilingan. Ekskursiya tarzida 15,4 ming kishi qatnagan.

## 2021- yilda eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar fondi



Muzeylardagi eksponatlar soni **30037** donani tashkil etib, shundan numizmatika buyumlari - **36,8 %**, boshqalar - **20,8 %**, sur'atlar - **14,1 %**, maishiy va etnografiya buyumlari - **10,7 %**, amaliy san'at buyumlari - **5,8 %**, hujjatlar - **5,4 %**, arxeologiya buyumlari - **5,3 %**, rassomlik - **0,7 %**, grafika - **0,2 %**, haykaltaroshlik - **0,1 %**.

### **Konsert tashkilotlari soni, birlik**



2021- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 216 tani tashkil etgan bo'lsa, tinglovchilar soni jami 72,1 ming nafarga teng bo'lgan.


### **Konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2017-2021 yillarda)**

	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Konsert tashkilotlari soni, birlikda</b>	1	2	2	2	2
<b>Konsertlar soni, birlikda</b>	102	207	143	41	216
<b>Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, ming kishi</b>	51,0	106,4	56,5	17,1	72,1

2021- yilda konsert tashkilotlarining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganida, gastrol-konsert tashkilotlari – 1 tani hamda filarmoniya – 1 tani tashkil etgan.



**Madaniyat va istirohat bog'lari, birlik**




2021- yilda viloyatimizda jami 9 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 80,4 gektardan iborat. Madaniyat va istirohat bog'larida dam olish ob'ektlari soni – 49 ta, jami attraksionlar soni 94 tani tashkil etgan. Shundan, 31,9 % Navoiy shahri (30 ta attraksion), 25,5 % Xatirchi tumani (24 ta), 17,0 % Karmana tumani (16 ta), 11,7 % Zarafshon shahri (11 ta), 6,4 % Uchquduq tumani (6 ta), 5,3 % Qiziltepa tumani (5 ta), va 2,1 % Navbahor tumani (2 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 233,4 ming kishini tashkil etib, shundan tashrif buyuruvchilarning 52,7 % bolalar (123,0 ming nafar) dan iborat. 2021- yilda madaniyat va istirohat bog'laridagi umumiy ishchi xodimlar soni 39 kishini tashkil etgan, ulardan 7 nafari yoki 17,9 % ayollardan iborat.

**Madaniyat va istirohat bog'larining asosiy ko'rsatkichlari, birlik  
(2017-2021 yillarda)**


	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Madaniyat va istirohat bog'lari soni</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>9</b>	<b>9</b>
<b>Dam olish ob'ektlari soni</b>	<b>56</b>	<b>48</b>	<b>50</b>	<b>49</b>	<b>49</b>
<b>Attraksionlar soni</b>	<b>72</b>	<b>95</b>	<b>94</b>	<b>94</b>	<b>94</b>

**Madaniyat markazlari soni, birlik**



Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, mavzuli va adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

**2021- yilda madaniyat markazlari soni shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, birlik**



**2021- yilda madaniyat markazlari faoliyatining  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>Muassasalar soni, birlikda</b>	<b>Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlikda</b>	<b>Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, ming kishi</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>32</b>	<b>2049</b>	<b>734,4</b>
<b>shaharlar:</b>			
<b>Navoiy</b>	1	556	356,7
<b>Zarafshon</b>	1	150	80,6
<b>G'ozg'on</b>	-	-	-
<b>tumanlar:</b>			
<b>Karmana</b>	5	281	50,0
<b>Konimex</b>	3	54	10,8
<b>Qiziltepa</b>	5	343	95,8
<b>Navbahor</b>	6	218	53,0
<b>Nurota</b>	3	200	40,0
<b>Tomdi</b>	1	58	5,7
<b>Uchquduq</b>	1	33	9,0
<b>Xatirchi</b>	6	156	32,8

Madaniyat markazlarida jami 2049 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 493 ta ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 567 ta mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 607 ta teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 382 ta konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 734,4 ming kishini tashkil etgan.

## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Madaniyat**- inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat [musiqa](#), [adabiyot](#), [badiiy tasvir](#), [me'morchilik](#), [teatr](#), [kinematografiya](#), turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

**Madaniy meros** - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**nomoddiy madaniy meros obyektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar”.

**Ansambllar** – tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

**Diqqatga sazovor joylar** – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Tel: +99879 223-54-98